KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA SOHASIDA DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARI HAMDA VAZIFALARI

Akbarjon Sotvoldiyev
Andijon davlat universiteti
Huquq-Iqtisod fakulteti
Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: sotvoldiyevakbarjon111@gmail.com
Tel.: +998 88 044 44 29
https://doi.org/10.5281/zenodo.23293800

"Korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz bo'lish
kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart"[1]
Sh. Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va vazifalari tahlil qilingan. Maqolada korrupsiyaning mohiyati, turlari (maishiy, ishbilarmonlik va yuqori hokimiyat vakillari korrupsiyasi), huquqiy asoslari, xalqaro reytinglardagi o'rin, statistik ko'rsatkichlar hamda oldini olish mexanizmlari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "halollik vaksinasi" g'oyasi va "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari ochib berilgan. Transparency International CPI indeksi, WJP huquq ustuvorligi indeksi, Bosh prokuratura va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotlari asosida 2019–2025-yillardagi dinamika tahlil qilingan. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ham berilgan.
Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, davlat siyosati, huquqiy asoslar, CPI indeksi, WJP indeksi, komplaens-nazorat, "halollik vaksinasi", ochiqlik va shaffoflik.

Abstract: This article analyzes the priority directions and tasks of the state policy in the field of combating corruption in the Republic of Uzbekistan. The essence of corruption, its types (petty, business, and grand corruption), legal foundations, position in international rankings, statistical indicators, and prevention mechanisms are covered. The results of reforms implemented on the basis of the ideas of "integrity vaccine" and the principle "The people should not serve state bodies, but state bodies should serve the people" put forward by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev are revealed. The dynamics of 2019–2025 are analyzed based on the data of the Transparency International CPI index, the WJP Rule of Law Index, the Prosecutor General's Office, and the Anti-Corruption Agency. The article also provides proposals for improving the effectiveness of the fight against corruption.

Keywords: corruption, anti-corruption, state policy, legal foundations, CPI index, WJP index, compliance control, “integrity vaccine”, openness and transparency.

Аннотация: В данной статье анализируются приоритетные направления и задачи государственной политики в сфере противодействия коррупции в Республике Узбекистан. Раскрываются сущность коррупции, её виды (бытовая, деловая и коррупция высших должностных лиц), правовые основы, место в международных рейтингах, статистические показатели, а также механизмы предупреждения. Показаны результаты реформ, осуществляемых на основе идеи «вакцины честности» и принципа «Не народ должен служить государственным органам, а государственные органы должны служить народу», выдвинутых Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым. На основе данных индекса восприятия коррупции Transparency International (CPI), индекса верховенства права WJP, Генеральной прокуратуры и Агентства по противодействию коррупции проанализирована динамика 2019–2025 годов. В статье также предложены меры по повышению эффективности борьбы с коррупцией.

Ключевые слова: коррупция, противодействие коррупции, государственная политика, правовые основы, индекс CPI, индекс WJP, комплаенс-контроль, «вакцина честности», открытость и прозрачность.

Kirish

Korrupsiyaga qarshi kurashish bugungi kunda nafaqat alohida davlatlar, balki butun xalqaro hamjamiyat uchun dolzarb va ustuvor vazifaga aylangan. Ushbu salbiy hodisa iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi, qonun ustuvorligini izdan chiqaradi, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradi hamda inson huquqlarining buzilishiga olib keladi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasiz bo‘lish kundalik hayot tarzimiga aylanishi shart”. Mazkur g‘oya asosida mamlakatimizda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi, milliy strategiyalar qabul qilindi, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, korrupsiyaga ta’rif berilganda shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yohu do’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, huddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish tushuniladi. Korrupsiya boshqaruvning barcha darajalarida uchrashi mumkin. Ya’ni, globval, milliy va mahalliy darajada. Barcha turdagi sub’yektlar korrupsiyaga ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda jalb qilinishi mumkin. Korrupsiyaning shaklari sifatida poraxo’rlik, tovlamachilik, firibgarlik, mulkni o’zlashtirish, hokimiyatni suistemol qilish, hushomadgo’ylik va sovg’a, qarindosh urug’chilik va mahalliychilik, homiylik va boshqa shakllarda ko’rishimiz mumkin. Korrupsiya uch xil ko’rinishda namoyon bo’ladi;

1. Maishiy korrupsiya,
2. Ishbilarmonlik korrupsiyasi,
3. Yuqori hokimiyat vakillari korrupsiyasi

Bu uch xil korrupsiya shakllarini izohlaydigan bo'lsak **maishiy korrupsiyada** fuqaro o'z ishini bitirish uchun mansabdor shaxsga pora beradi, mansabdor shaxs o'z mansab vakolatini sotib, qonunga zid ravishda fuqaro tomonidan berilgan "sovg'a" yoki pora evaziga uning ishini bitirib beradi. Ushbu illat odatda kasalxonalar, ta'lim tashkilotlari, ichki ishlar bo'linmalari va boshqa joylarda asosiy davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonida hokimiyatning quyi va o'rta bo'g'inlarida namoyon bo'ladi.

Ishbilarmonlik korrupsiyasi: Ushbu qilmish davlat xizmatchilari va tadbirkorlar o'rtasida sodir etiladi. Ya'ni, tadbirkor o'z ishini bitirish uchun davlat xizmatchisiga pora beradi yoki moddiy manfaatdor qiladi, davlat xizmatchisi esa, ushbu tadbirkorni berilgan pora yoki ko'rsatilgan xizmat evaziga o'z vakolatlarini suiste'mol qiladi.

Yuqori hokimiyat vakillari korrupsiyasi: Ushbu qilmish mamlakatning yuqori turuvchi hokimiyat rahbarlari, siyosiy partiyalar, sud hokimiyati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan sodir etiladi.

Albatta mahalliy va xalqaro doirada keng ommalashayotgan va ildiz otib boryatgan bu illatga qarshi kurashish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Shu o'rinda Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev shunday degan edilar "Korrupsiyaga qarshi kurashishda axolining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxasislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak"[1].

Asosiy qism

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining huquqiy asoslari izchil mustahkamlanib bormoqda. Mamlakatimiz 07.07.2008-yilda O'RQ-158-son qonun bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasiga qo'shilgan[2]. Keyinchalik 03.01.2017-yilda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonun[3], 08.08.2022-yild "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son qonun[4] va 05.06.2024-yilda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son qonun qabul qilindi. Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli normalari, 2020-yildagi tizimni takomillashtirish farmoni, 2021-yildagi murosasiz munosabat muhitini yaratish farmoni, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ushbu sohada yagona huquqiy asosni tashkil etadi.

Davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari uchta ustuvor vazifaga asoslanadi: aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oqibatlarini bartaraf etish va javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash. Bu yo'nalishlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "halollik vaksinasi" g'oyasini amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Xalqaro reytinglarda mamlakatning o‘rni sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. Transparency International tashkilotining Korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI) bo‘yicha O‘zbekiston 2019-yilda 153-o‘rinda (25 ball), 2020-yilda 146-o‘rinda (26 ball), 2021-yilda 140-o‘rinda (28 ball), 2022-yilda 126-o‘rinda (31 ball), 2023-yilda 121-o‘rinda (33 ball) bo‘lgan edi. 2024-yilda ball 32 ga tushib, 121-o‘rin saqlanib qoldi, 2025-yilda esa 31 ball bilan 124-o‘ringa tushdi[5].

1.rasm



Manba: Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023, 2024, 2025 rasmiy hisobotlar. https://www.transparency.org/en/cpi/2025/index/uzb

Markaziy Osiyo mintaqasida Qozog‘iston (taxminan 40 ball, 88-o‘rin atrofida) oldinda turadi, Qirg‘iziston va Tojikiston esa pastroq o‘rinlarda qolmoqda. Jahon adolat loyihasi (WJP) huquq ustuvorligi indeksida O‘zbekiston 2020-yilda 0,47 ball (92-o‘rin), 2021-yilda 0,49 ball (85-o‘rin) ko‘rsatgan bo‘lsa, 2025-yilda ball taxminan 0,50 ga yetib, 81-o‘rinni egalladi[6]. Bu o‘zgarishlar islohotlarning ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, biroq barqarorlikni ta’minlash uchun qo‘shimcha choralarni talab qiladi.

Statistik ma’lumotlar ham tizimli ishlar natijasini aks ettiradi. 2023-yilda 7394 nafar shaxs korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan. Sohalar kesimida eng ko‘p holatlar energetika (753), ta’lim (825), bank (612), qurilish (560), sog‘liqni saqlash (507) sohalarida qayd etilgan. Yetkazilgan zarar 5 trillion so‘mdan oshgan. 2024-yilda 7354 nafar, 2025-yilda esa 7517 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi. 2025-yilda davlat manfaatlariga yetkazilgan zarar 2,9 trillion so‘mdan oshdi[7].

2.Rasm



Manba: Oliy Majlis Senati 2025-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruza matni. https://www.gazeta.uz/oz/2026/08/10/anti-corruption/

Mansabdor shaxslar jinoyatchiligi bo‘yicha 2019-yildan 2023-yilgacha jinoyat ishlari soni 994 tadan 3412 taga, shaxslar soni 1139 tadan 3575 taga oshgan. Aniqlangan zarar 2019-yilda 1,8 trillion so‘m, 2023-yilda 1,5 trillion so‘mni tashkil etgan, undirilgan qismi esa mos ravishda 1,7 trillion va 1,3 trillion so‘m bo‘lgan.

2024-yilda esa bu ko’rsatkichlar jinoyat ishi bo’yicha 3821 ta, jinoyat sodir etgan shaxslar 4906 ta, aniqlangan zarar 3,608 trln so‘m, undirilgan zarar esa 2,343 trln so‘mni tashkil etgan[8].

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga 2025-yil davomida jami 5256 ta murojaat kelib tushgan (2024-yilga nisbatan 25,9 foizga ko‘p). 2025-yilda davlat xaridlarida 666,6 milliard so‘mlik 189 ta qonunbuzarlik aniqlangan[9].

3.Rasm



Manba: O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. https://aca.uz/en/article/2025-yil-davomida-agentlikka-kelib-tushgan-murojaatlar-tahlili

Korrupsiyaga imkon beruvchi sabablarni bartaraf etishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat: ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash; "halollik vaksinasi" tamoyili asosida ta'limni rivojlantirish; byurokratik to'siqlarni bartaraf etish; manfaatlar to'qnashuvining oldini olish; samarali ichki nazorat tizimini joriy etish; samarali ijtimoiy himoya; davlat xizmatlarini raqamlashtirish; korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazish. Ichki nazorat (komplaens-nazorat) tizimi davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini xalqaro standartlar va milliy qonunchilikka muvofiq tashkil etish, korrupsiya xavf-xatarlarini o'z vaqtida aniqlash va cheklash mexanizmidir. Ushbu tizimga davlat organi rahbari, kadrlar xizmati, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, ichki inspeksiya, odob-axloq komissiyasi, komplaens-nazorat tizimi va ichki audit bo'limi kiritiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda maxsus vakolatli organlar muhim rol o'ynaydi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyat yuritadi. Muhtaram Prezidentimizning 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6257-sonli Farmonida asosida Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalarning aniq ro'yxati belgilangan. Unga ko'ra, 16 turdagi jinoyatlar (167, 168, 192-9, 192-10, 192-11, 205, 206, 208, 209, 210, 211, 212, 213, 214, 301, 243-moddalar va ularning tegishli qismlari) korrupsiyaga oid deb e'tirof etiladi. Bu jinoyatlarni sodir etganlarning muddatidan oldin ozodlikka chiqarilmasligi va jazoning engilroq turi bilan almashtirilmasligi nazarda tutilgan[10].

4.Rasm



Manba: Muhtaram Prezidentimizning 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6257-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-5495529

Islohotlarning tub zamirida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”[11] degan tamoyil mujassam. Shu asosda mavjud barcha imkoniyatlar xalq manfaatlariga yo‘naltirilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligi nafaqat huquqiy va institutsional choralarga, balki jamiyatning har bir a’zosining faol ishtirokiga bog‘liq.

Xulosa

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi. Huquqiy asoslar mustahkamlandi, maxsus institutlar tashkil etildi, ochiqlik va shaffoflik mexanizmlari joriy qilindi. Xalqaro reytinglarda sezilarli o‘sish kuzatildi, biroq 2024–2025-yillarda CPI indeksida biroz pasayish qayd etildi. Statistik ma’lumotlar korrupsiyaviy jinoyatlarning hali ham yuqori darajada ekanini, ayniqsa ta’lim, sog‘liqni saqlash, bank va energetika sohalarida ko‘p uchrashini ko‘rsatmoqda. Mansabdor shaxslar jinoyatchiligi 2019–2024-yillarda sezilarli oshgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish uchun oldini olish choralariga ustuvor ahamiyat berish, “halollik vaksinasi” g‘oyasini jamiyatning barcha qatlamlariga singdirish, ichki nazorat (komplaens) tizimini kuchaytirish, davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish zarur. Faqat huquqiy va institutsional chora-tadbirlar bilan cheklanmay, jamiyatda murosasiz munosabatni shakllantirish orqali yuksak marralarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // https://president.uz/oz/lists/view/3324
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // https://president.uz/uz/lists/view/4057
3. O‘zbekiston Respublikasining “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasiga qo‘shilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 07.07.2008-yildagi O‘RQ-158-son // https://lex.uz/docs/-1369505
4. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 03.01.2017-yildagi O‘RQ-419-son // https://lex.uz/docs/-3088008
5. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni, 08.08.2022-yildagi O‘RQ-788-son // https://lex.uz/docs/-6145972
6. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni, 05.06.2024-yildagi O‘RQ-931-son
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/-5495529
8. Oliy Majlis Senati. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruza (2025-yil yakunlari) // https://www.gazeta.uz/oz/2026/08/10/anti-corruption/
9. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi. Mansabdor shaxslar jinoyatchiligi tahlili (2024-yil) // https://daryo.uz/2025/01/26/ozbekistonda-mansabdorlar-2024-yilda-koproq-qanday-jinoyatlar-sodir-etgani-malum-qilindi/
10. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. 2025-yil davomida kelib tushgan murojaatlar tahlili // https://aca.uz
11. “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” – Sh. Mirziyoyevning 2016-yil 19-oktyabrdagi Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023, 2024, 2025 // https://www.transparency.org/en/cpi